

IQTISODIY BARQARORLIK VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI RO'LI

Ibroximov Shoxumirza

University of Business and Science "Iqtisodiyot" kafedrasi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15788619>

Annotatsiya. Mazkur maqolada iqtisodiy barqarorlik tushunchasi, uning asosiy omillari va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni yoritilgan. Pul-kredit siyosati, budjet muvozanati va tashqi savdo kabi muhim yo'naliishlar asosida barqarorlikni ta'minlash yo'llari tahlil qilingan. Iqtisodiy barqarorlikning ijtimoiy hayotga, xususan, bandlik va investitsion muhitga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar hamda ularning natijalari haqida misollar asosida tushuncha berilgan. Ushbu maqola barqaror va farovon jamiyat qurish yo'lida iqtisodiy muvozanatning nechog'lik muhimligini ochib beradi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy barqarorlik, makroiqtisodiy muvozanat, budjet siyosati, pul-kredit siyosati, investitsiyalar, bandlik, tashqi savdo, iqtisodiy islohotlar, O'zbekiston iqtisodiyoti, inflyatsiya, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy farovonlik.

Kirish: Iqtisodiy barqarorlik — mamlakatning makroiqtisodiy ko'rsatkichlari muvozanatda saqlanishini, inflyatsiyaning nazorat ostida bo'lishini, bandlik va investitsion muhitning ijobjiy bo'lishini anglatadi. Bugungi globallashgan dunyoda iqtisodiy barqarorlik har bir davlat uchun muhim strategik maqsadga. So'nggi o'n yilliklarda dunyo miqyosida iqtisodiy jarayonlar chuqur o'zgarishlarga uchramoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishni barqarorlashtirish, inflyatsiyani jilovlash va jamiyat farovonligini ta'minlash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, globallashuv, pandemiyadan keyingi iqtisodiy tiklanish, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi kabi omillar makroiqtisodiy siyosatni qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda.^[1] Shunday sharoitda iqtisodiy barqarorlik tushunchasi iqtisodiyot fanida va amaliy siyosatda alohida urg'uga ega bo'lib bormoqda. Bu barqarorlik faqatgina moliyaviy ko'rsatkichlarning ijobjiy bo'lishi emas, balki iqtisodiy tizimning ichki muvozanatini, tashqi tahdidlarga bardoshlilagini va ijtimoiy-iqtisodiy barqaror hayotni anglatadi.

Mazkur maqolada iqtisodiy barqarorlik tushunchasining nazariy va amaliy asoslari, uning jamiyat rivojlanishidagi o'rni hamda O'zbekiston misolida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi.^[2]

Mavzuning dolzarbliji: Bugungi globallashgan va tez o'zgarayotgan iqtisodiy sharoitda iqtisodiy barqarorlik masalasi har bir mamlakat uchun ustuvor yo'naliish hisoblanadi. Geosiyosiy beqarorlik, pandemiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari, inflyatsiya bosimi va energetika inqirozları kabi omillar iqtisodiy tizimning mustahkam bo'lishini talab qilmoqda. Xususan, rivojlanayotgan davlatlar, jumladan O'zbekiston uchun iqtisodiy barqarorlik nafaqat qisqa muddatli makroiqtisodiy natijalar, balki uzoq muddatli ijtimoiy farovonlik, bandlik, investitsion jozibadorlik va innovatsion taraqqiyotning poydevoridir. Shu sababli, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlarini chuqur o'rganish va tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.^[3]

1. Pul-kredit siyosatining muvozanatli yuritilishi
 - Markaziy bank tomonidan inflyatsiyani nazorat qilish
 - Foiz stavkalarining iqtisodiy faollikkaga mos tarzda belgilanishi

- Pul massasining me'yorida aylanishi
 - 2. Budjet siyosati va fiskal intizom
 - Davlat xarajatlari va daromadlarining muvozanati
 - Byudjet taqchilligini kamaytirish, qarzni oqilona boshqarish
 - Soliq siyosatining barqarorligi va shaffofligi
 - 3. Tashqi savdo balansi va valyuta barqarorligi
 - Eksport-import muvozanatini saqlash
 - Valyuta kursining barqaror bo'lishi orqali investorlarga ishonch uyg'otish
 - Tashqi qarzning xavfsiz chegaralarda bo'lishi
 - 4. Bandlik va aholi daromadlari barqarorligi
 - Yangi ish o'rirlarining yaratilishi
 - Ish haqi va ijtimoiy to'lovlarning kechikmasdan amalga oshirilishi
 - Ijtimoiy himoya tizimlarining mavjudligi
 - 5. Mahalliy ishlab chiqarish va iqtisodiy diversifikatsiya
 - Neft, gaz, paxta singari xomashyo eksportiga qaramlikni kamaytirish
 - Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash
 - Innovatsion tarmoqlarning rivojlanishi (IT, sanoat, qishloq xo'jaligi)
 - 6. Investitsiya muhitining barqarorligi
 - Xususiy mulk daxsizligi kafolatlari
 - Tadbirkorlikni quvvatlovchi huquqiy va institutsional baza
 - Chet el investitsiyalarini jalg etish uchun ishonchli sharoitlar
- Barqarorlikning jamiyatdagi ijobiy ta'siri
- Ish o'rirlari barqarorligi va aholi daromadining o'sishi
 - Investitsiyalar uchun qulay muhit yaratilishi
 - Ijtimoiy sohalarga (ta'lim, tibbiyot) ajratiladigan mablag'larning ko'payishi
- Barqarorlikka tahdid soluvchi omillar
- Tashqi qarz ortishi
 - Geosiyosiy xavf-xatarlar
 - Importga qaramlik va narxlarning beqarorligi

O'zbekistonda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar

- Soliq islohotlari va budjet intizomi mustahkamlanishi
 - Mahalliy ishlab chiqaruvchilarga berilayotgan imtiyozlar
 - “Yashil iqtisodiyot” tamoyillarini joriy etish
1. Makroiqtisodiy siyosatni izchil yuritish
 - Inflyatsiyani nazorat qilish uchun pul-kredit siyosatini oqilona olib borish
 - Budjet taqchilligini kamaytirish va fiskal intizomni mustahkamlash
 - Foiz stavkalarini iqtisodiy faollilik bilan muvofiqlashtirish
 2. Sifatli bandlik va aholi daromadlarini oshirish
 - Yangi ish o'rirlari yaratish bo'yicha yirik loyihalarni rag'batlantirish
 - Kasb-hunar o'qituvini kuchaytirish
 - Mehnat bozori monitoringi orqali muvozanatli ishchi kuchi ta'minoti

3. Real sektorni modernizatsiya qilish
 - Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlovchi subsidiyalar va kreditlar
 - Sanoatni diversifikatsiya qilish va qo'shilgan qiymat zanjirini kengaytirish
 - “Yashil iqtisodiyot” tamoyillariga mos texnologiyalar joriy etish
4. Tashqi iqtisodiy muvozanatni saqlash
 - Eksport hajmini oshirish va yangi bozorlarni izlash
 - Importni maqbullashtirish, ichki alternativalar yaratish
 - Valyuta kursi barqarorligini ta'minlash
5. Investitsiya muhitini yaxshilash
 - Xususiy mulkni huquqiy himoya qilish va investorlar uchun kafolatlar
 - Byurokratik to'siqlarni bartaraf etish
 - Innovatsion startaplar uchun soliq va moliyaviy yengilliklar
6. Iqtisodiy savodxonlik va raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish
 - Ommaviy moliyaviy savodxonlikni oshirish
 - bo'yicha dasturlar
 - Raqamli iqtisodiyotga mos kadrlar tayyorlash
 - Korrupsiyaga qarshi madaniyatni shakllantirish[4]

Iqtisodiy barqarorlikning foydasi juda ko'p qirrali va jamiyatning barcha qatlamlariga ta'sir etuvchi omildir. Quyida uning asosiy foydalari keltirilgan:

1. Ijtimoiy farovonlikni oshiradi

Barqaror iqtisodiyotda inflyatsiya nazoratda bo'ladi, narxlar nisbatan barqaror bo'ladi va aholining real daromadi o'sadi. Bu esa odamlarga kelajakka ishonch bilan qarash imkonini beradi.

2. Barqaror ish o'rirlari yaratiladi

Bandlik darajasi yuqori bo'lib, ishsizlik kamayadi. Mehnat bozori barqaror bo'lsa, jamiyatda ijtimoiy xavfsizlik kuchayadi.

3. Investitsiyaviy jozibadorlik ortadi

Iqtisodiy barqarorlik xorijiy va mahalliy investorlarga ishonch bag'ishlaydi, chunki ular o'z sarmoyalarini xavfsiz muhitda joylashtirishni istaydi.

4. Davlat moliyasining barqarorligi

Byudjet tushumlari barqaror bo'ladi, davlat ijtimoiy loyihalarni moliyalashtira oladi. Bu sog'lijni saqlash, ta'lim, infratuzilma kabi sohalarga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

5. Rivojlanish strategiyalarini amalga oshirish imkonini beradi

Uzok muddatli iqtisodiy siyosat va strategik dasturlar barqaror iqtisodiyot fonida ancha samarali bo'ladi. Innovatsiyalar va texnologik yangilanishlar uchun zamin yaratiladi.[5]

Xulosa: Iqtisodiy barqarorlik — bu faqat moliyaviy ko'rsatkichlar barqarorligi emas, balki butun jamiyat uchun xavfsiz va farovon hayot poydevori hisoblanadi. Davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar va xalqaro tajriba asosida harakat qilish mazkur barqarorlikka erishishning eng samarali yo'lidir. Iqtisodiy barqarorlik — bu har bir jamiyatning taraqqiyoti, fuqarolarning farovonligi va mamlakatning kelajakka bo'lgan ishonchining poydevoridir. Narxlar barqarorligi, mustahkam moliyaviy tizim va oqilona davlat siyosati birgalikda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning yo'lini ochadi.

Barqaror muhitda tadbirkorlik rivojlanadi, ish o‘rnlari yaratiladi, aholi uchun ta’lim va sog‘lijni saqlash kabi xizmatlar barqaror moliyaviy manba bilan ta’minlanadi. Ayniqsa, raqamli inqirozlarning oldini olishda va global iqtisodiyotdagi tahdidlarga qarshi turishda iqtisodiy barqarorlikning o‘rnini beqiyosdir. Shunday ekan, har bir jamiyat va davlat o‘z taraqqiyot strategiyasida iqtisodiy barqarorlikni asosiy ustuvorlik sifatida belgilashi dolzARB masala bo‘lib qolaveradi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo’llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-37-son Farmoni.
2. <https://lex.uz/docs/-6600413>
3. Vikipediya.
4. <https://parliament.gov.uz/ru/articles/381>
5. <https://old.gov.uz/oz/news/view/928>